

MAMADJONOV Adhamjon Baxtiyorjon o'g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti tayanch doktoranti
baxtiyorovich91@bk.ru
 ORSID: <https://orcid.org/0009-0006-8715-9023>

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI YO'NALISHI VA ISTIQBOLLARI

THE DIRECTION AND PROSPECTS OF THE ORGANIZATION OF TURKISH STATES IN UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY

НАПРАВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТУРЕЦКИХ ГОСУДАРСТВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Anotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston tashqi siyosatida turkiy davlatlar tashkilotining o'rni va ahamiyati, ishtirokning tarixi hamda zamonaviy bosqichi, kelgusidagi istiqbollari tahlilini amalga oshirish va tavsiyalar berishdan iborat. Maqolada O'zbekistonning TDT dagi ishtiroki, uning nazariy asoslari, zamonaviy jihatlari o'rganilgan. Davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlari, davlat hukumat vakillarining keng va tor doiradagi yig'ilishlari va undan ko'zlangan maqsadlar shuningdek, ushbu aloqalardan kutilayotgan istiqbollar muhokama etilgan hamda nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: TDT, Istambul deklaratsiyasi, Naxichivan shartnomasi, Cho'lpon ota yig'ilishi, Samarqand ruhi, Ostona sammiti, hamkorlik, o'zaro aloqalar, tashqi siyosat, integratsiya, ta'lim, demokratiya, umummilliy qadriyatlar, umumiy din, til, madaniyat, xavfsizlik.

Anotation: the purpose of this study is to carry out an analysis of the role and importance of the organization of Turkic states in the foreign policy of Uzbekistan, the history of participation and the future prospects of the modern stage and make recommendations. The article discusses Uzbekistan's participation in the TSO, its theoretical foundations, modern aspects, high-level meetings of state leaders, the intended goals of meetings of representatives of the state government in a wide and narrow circle, as well as, the prospects expected from these contacts discussed and theoretical proposals developed.

Keywords: TSO, The declaration of Istanbul, The agreement of Nakhichivan, The meeting of Chulpan ota, The spirit of Samarkand, Organization of Turkic States Summit in Astana, corporation, interaction, foreign policy, integration, education, democracy, nationwide values, common religion, language, culture, security.

Аннотация: Целью данного исследования является анализ роли и значения организации тюркских государств во внешней политике Узбекистана, истории участия и дальнейших перспектив на современном этапе, а также выработка рекомендаций. В статье рассматривается участие Узбекистана в ТДТ, его теоретические основы и современные аспекты. Обсуждались встречи на высоком уровне глав государств, широкие и узкие встречи представителей правительств штатов, цели и перспективы, ожидаемые от этих контактов, а также разрабатывались теоретические предложения.

Ключевые слова: ТДТ, Стамбульская декларация, Нахчыванский договор, Чолпан атаское собрание, Самаркандский дух, Астанинский саммит, сотрудничество, взаимоотношения, внешняя политика, интеграция, образование, демократия, национальные ценности, общая религия, язык, культура, безопасность.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri-bu xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lish. 2017-yil 7-fevralda ishlab chiqilgan "Xarakatlar strategiyasi"ning beshinchi tamoyili "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat" buning yorqin misolidir. Bundan tashqari O'zbekistonni 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantrish uchun ishlab chiqilgan "O'zbekiston-2030" [1] Taraqqiyot strategiyasi mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish tamoyili asosida belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati, uzoq va yaqin xorij davlatlari bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasidagi tashabbuslari tufayli so'ngi yillarda xalqaro maydonda o'z imidjini yaxshilab, ijobiy hamkorlikga erishmoqda. Ma'lumki har bir davlatning qudrati va salohiyati uning nufuzli tashkilotlardagi faoliyati va roli bilan belgilanadi. Turkiy davlatlar tashkiloti shunday nufuzli tashkilotlar sirasiga kiradi.

Turkiy davlatlar tashkiloti O'zbekiston uchun yangi muloqot maydonlaridan biridir, u turk dunyosi mamlakatlari muloqoti va hamkorligini rivojlantirish uchun tashkil etilgan xalqaro platforma bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida do'stlik muloqotini amalga oshirish, iqtisodiy rivojlanishga erishish, mintaqada va jahonda tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

2009 yilning 3-oktyabrida Ozarbayjonning Naxichevan shahrida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'izistondan iborat to'rt davlat ishtirokida Turkiyazabon davlatlarning hamkorlik kengashi tuzilgani e'lon qilingan bo'lib, uning faoliyati prinsiplari 2016 yil 16-sentyabrdagi Istanbul deklaratsiyasida e'lon qilingan. Birinchi bosqichda tashkilotga Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston a'zo, Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi davlatlar sanaladi. Ushbu kelishuvdan keyin TTDHK turkiy davlatlar manfaatini birlashtiruvchi xalqaro tashkilotga aylandi. 1992 yilda Turkiy tilli davlatlar dastlabki sammiti o'tkazila boshlangan edi. Kengashni tashkil etish tashabbuskori Qozog'istonning birinchi prezidenti Nursulton Nazarboev hisoblanadi. E'tirof etish kerak, tashkilotning o'z kotibiyati va hamkorlikka oid kerakli hujjatlari bor. Ushbu kengash siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat va sportga oid barcha masalada hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Tashkilot tarkibi turkiy davlatlarning rahbarlar Kengashi, Tashqi ishlar vazirlar kengashi, Katta mansabdor shaxslar qo'mitasi, Oqsoqollar kengashi va Bokudagi Parlament assambleyasi, Nur-Sultonda Turk akademiyasi, Anqarada turk madaniyati xalqaro tashkiloti (TURKSOY) va Kotibiyatdan tashkil topgan. Kotibiyat Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida joylashgan [2: 14-15].

2021 yil 12-noyabrda Istanbul shahridagi Demokratiya va Erkinliklar orolida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining VIII Istanbul sammitida tashkilot nomi Turkiy davlatlar tashkiloti deb o'zgartirildi va Turkmaniston ham tashkilotda kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo'ldi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning aholisi taxminan 150 million kishini tashkil etadi, ular 4 million 200 ming kvadrat-kilometrlik katta va muhim geosiyosiy hududda joylashgan. Tashkilotga a'zo davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rni ham juda salmoqli hisoblanadi [3].

2021 yilda Istanbul shahrida bo'lib o'tgan davlat rahbarlari sammitida Tashkilot faoliyatidagi eng muhim hujjatlardan biri "Turkiy dunyo nigohi – 2040" strategik hujjati imzolandi. Bugungi dunyo hayotida yuz berayotgan jarayonlar va yaqin istiqbol xalqaro munosabatlarini e'tiborga olgan holda siyosat va xavfsizlik, iqtisodiyot sohasi, xalq diplomatiyasi, tashqi sheriklik bo'yicha hamkorlik kabi to'rt asosiy yo'nalish mazkur hujjatning asosini tashkil qiladi [4].

Bugungi kunda tashkilot faoliyati 22 ta moddadan iborat "Naxchivan shartnomasi"ga muvofiq faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, "Naxchivan shartnomasi"ning 2-moddasida "tomonlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, mintaqada va uning tashqarisida tinchlikni ta'minlash va xavfsizlikni mustahkamlash, tashqi siyosat masalalari bo'yicha umumiy pozitsiyalarni qabul qilish, umumiy maqsadlarga taalluqli barcha sohalarida samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish hamda a'zo davlatlar o'rtasida savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish" kabi nazarda tutilgan maqsadlar a'zo davlatlar tomonidan to'laqonli amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonning tashkilotga qo'shilishida Turkiyaning tashabbuslarini alohida qayd etish lozim. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyib Erdo'g'onning 2018 yil 29-aprel – 1-may kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida Prezident Shavkat Mirziyoevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a'zo bo'lish va sentyabr oyida Qirg'izistonning Cho'lpon ota shahrida o'tadigan navbatdagi sammitda ishtirok etishga taklif qildi. Taklifga javoban O'zbekiston yetakchisi 2018-yil 3-sentyabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi.

2019-yil 14-sentyabr kuni O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi [5] va tashkilotning to'la huquqli a'zosiga aylandi.

2019-yildagi kengash bosh kotibi B.Amreev tashkilot imkoniyatlarini baholar ekan O'zbekistonning TTDHKga a'zo bo'lishi tashkilotning yettinchi sammitining asosiy voqealaridan biri ekanligi. Shavkat Mirziyoevning Turk kengashi doirasida yosh tadbirkorlar forumini tashkil etish va 2020-yilda O'zbekistonda birinchi majlisini o'tkazish to'g'risidagi tashabbusi o'z vaqtida va ayniqsa foydalilidir.

Ushbu qadam O'zbekiston tashqi siyosatida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, nafaqat Markaziy Osiyo balki Kaspiybo'yi, Kichik Osiyo hamda Yevropaga qadar bo'lgan hududni qamrab oluvchi tashkilotdagi faoliyat davlat rivojlanishi uchun samaralidir. Qolaversa, Turkiy kengashga a'zo va kuzatuvchi davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama formatda hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Prezident Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, Kengash maslahatlashuv va davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm hamda Markaziy Osiyo, Kavkaz, O'rta Sharq va Yevropada teng huquqli, o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni ilgari surish vositasi sifatida ulkan imkoniyatlarga ega [6].

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Bir qancha xorijiy va mahalliy tahlilchilar O'zbekistonning Kengashga a'zo bo'lishi haqida turlicha fikr va munosabatlarini bildirishdi.

Masalan, Turkiyalik ekspert "AnkaSAM" tahliliy markazi direktori M.Erol turkiy dunyo kengayishini baholar ekan, "Turkiy olamni O'zbekistonsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu haqiqatni inobatga olgan holda, Toshkentning tashkilotga integratsiyalashuvi nafaqat joriy yil, balki so'nggi o'n yillikning ham muhim voqeasidir" [6: 213] deya fikr bildiradi.

Turkiyaning Stratejik Analiz Enstitüsü direktori Muhammet Savaş Kafkasyalı esa o'z fikrini quyidagicha bayon qiladi: "O'zbekistonning TTDHKga kirishi tashkilot rivojida yangi davrni boshlab beradi va keng ko'lamli mintaqaviy hamkorlikka yangi sur'at bag'ishlaydi, prezident Sh.Mirziyoev tomonidan Bokuda bo'lib o'tgan sammitda ilgari surilgan aniq tashabbuslar tufayli o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ilgari ishlayotgan imkoniyatlarni ochib beradi"[6].

Turkiyaning "Sahipkiran" Stratejik Araştırmalar Merkezi direktori Süleyman Erdem: "O'zbekistonning TTDHK ishtiroki va uning boshqa a'zolar bilan olib borgan muzokara yakunlari Prezident Sh.M.Mirziyoevning yaqin xorij davlatlari bilan konstruktiv tashqi siyosati, yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga sodiqligidan dalolat beradi" [6: 215]. Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri M.Chavusho'g'lu O'zbekiston turk dunyosining eng muhim davlatlaridan biri ekanligi, O'zbekistonning turkiy kengashga a'zoligi tarixiy qadam deya baxolaydi.

Bu fikrlarning ko'pchiligi Kengashga a'zo davlat vakillari va rahbarlari tomonidan bildirilganini hisobga olinsa, ijobiy fikrlar tabiiy, ammo tanqidiy fikr bildirgan ekspertlarning xulosalarini tahlil qilish ko'rilayotgan mavzuning qiymatini oshiradi.

"Стратегия Восток-Запад" tahlil markazining bosh direktori Dmitriy Orlov Turkiy ittifoqning istiqboliga shubha bilan qaraydi. Ekspert fikriga ko'ra Turkiy dunyo mamlakatlari turli xil iqtisodiy salohiyatga ega, agar Turkiyaning yalpi ichki mahsulotiga nazar tashlasangiz, u boshqa barcha mamlakatlar – Qozog'iston, Ozarbayjon va Qirg'izistonning yalpi ichki mahsulotidan uch barobar ko'p, bu iqtisodiy tengsizlik o'z o'rnida siyosiy oqibatlariga olib keladi"[6:215]. Ekspert fikricha, bu balki bir tomonlama bosimni oshirishi mumkin, biroq bunday tafovut deyarli barcha xalqaro tashkilotlarda mavjud, bunday farq imkoniyatlarni pasaytirish emas, balki oshirishga xizmat qiladi.

Qirg'izistondagi "Евроазия - новая волна" jamg'armasi direktori o'rinbosari Denis Berdakov "Кавказский вестник"ga bildirgan fikrlarida Turkiy kengashni tiklashga qaratilgan hozirgi urinish ijobiy, chunki unga O'zbekiston qo'shildi, bu Turkiyadan-Qozog'istongacha geografik birlashuvni anglatadi. Bu albatta, turk dunyosi uchun katta yutuq. Ammo, kelajakni hech kim oldindan bilmaydi, Turkiy kengashning bir qismi sifatida unga turli xil iqtisodiy va siyosiy salohiyatga ega bo'lgan davlatlar a'zodir. Turkiy kengashni Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan taqqoslash mumkin. Ko'pgina shartlar, shu jumladan iqtisodiy, ammo pirovardda milliy davlatlarning siyosati ustunlik qiladi. Shuning uchun, iqtisodiy boradagi ittifoq to'liq kuch bilan ishlamaydi". Berdakovga ko'ra, mamlakatlarda turli sohalarda tafovutlar mavjud. Birinchidan, savdo-sanoat sohasida O'zbekiston va Turkiya boshqa mamlakatlar bozori uchun raqobatlasha oladi, biroq Qirg'iziston va Turkiya noteng. Ikkinchidan, turli bloklar bilan hamkorlikdagi farq, Qozog'iston va Qirg'iziston harbiy-texnik va iqtisodiy hamkorlikda Rossiyaga yo'naltirilgan. Uchinchidan, iqtisodiyotlardagi keskin farq: Qozog'iston gaz-neft ishlab chiqaruvchi mamlakat, Turkiya esa, eksportga yo'naltirilgan. Shunga ko'ra, ular turli maqsadlarga ega. Berdakov tashkilotning yaqin kelajagida jiddiy iqtisodiy loyihalar ko'rinmasligini aytib fikrlarini xulosalaydi [7]. Ekspert gumanitar va madaniy yo'nalishda istiqbollar bor deb hisoblaydi.

Ammo ular ham ziddiyatli, chunki katta davlatlar Qozog'iston va O'zbekiston Turkiyaning har qanday jiddiy diniy va madaniy ta'sirini bloklaydi, deb xisoblaydi, lekin bu qanchalik to'g'ri ekanligini vaqt ko'rsatadi.

O'zbekistonlik siyosiy tahlilchi X.Azimov Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro munosabatlar jarayoniga integratsiyalashuvdagi o'rni beqiyos ekanligini qayd etar ekan, bu borada quyidagicha fikr bildiradi "...aytish lozimki, Markaziy Osiyoni turli maqsadlardagi xalqaro tuzilmalarga kiritishga o'rinishlar dunyo tajribasida juda ko'p uchraydi. Mazkur strategik mintaqada yuz beradigan jarayonlar jahon xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, bu borada siyosiy keng ta'sirli qator mamlakatlar munosabatlarida mintaqani o'z siyosiy irodasini ko'ndalang qo'ya olmaydigan hudud sifatida tutishga urinishlar ustuvorlik kasb etar edi. Turkiy davlatlar tashkiloti esa mana shunday munosabatga chek qo'yuvchi qadamlardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, tashkilot doirasida Oqsoqollar kengashining qayta tuzilishi turk davlati an'analarining siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmining tarixiy ildizlarini ochib beradi [3: 4].

Yana bir siyosatshunos olim S.Jo'raev tashkilotning tarkibdagi yosh mustaqil davlatlar rivojlanishiga ijobiy ta'sirini baholar ekan, TDT global miqyosdagi salbiy jarayonlarning oldini olishni imkon darajada yengilroq o'tkazish va yangidan shakllanayotgan xalqaro tizimlarda turkiy davlatlar o'z o'rnini topishi va istiqbolli rivojlanishga ega bo'lishning yangi imkoniyatlari hamda shartsharoitlarini yaratishi. O'z navbatida, yosh mustaqil davlatlarning, ayniqsa, milliy o'zlikni va qadriyatlarni anglash asosida dunyo siyosiy-iqtisodiy-ijtimoiy jarayonida o'z o'rniga ega bo'lish va milliy manfaatni himoya qilishga qaratilgan xalqaro platforma ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ekspert tashkilot istiqbollariiga ishora qilib, global iqtisodiy inqiroz kuchayib borayotganiga qaramasdan, o'zaro savdo hajmi o'sishiga erishilmoqda [8].

Siyosatshunos S.Bo'ronov TDTning O'zbekiston tashqi siyosatida alohida o'ringa ekanligi baholar ekan, 160 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan turkiy dunyo uchun O'zbekiston nihoyatda muhim, o'z navbatida O'zbekiston uchun ham turkiy dunyo alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, turkiy dunyo tarixi hamda tammaddunida O'zbekistonning alohida

va beqiyos hissasi borligiga e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, Tashkilot a'zo davlatlar rivoji uchun beqiyos ahamiyatga ega va tashkilotda O'zbekistonning bo'lishi uning nufuzi hamda imkoniyatlarini yanada oshiradi. S.Bo'ronov o'z fikrlarini quyidagicha asoslar bilan dalillaydi, birinchidan, turkiy dunyo yagona din, til, tarix, mushtarak madaniyat, birodar xalqlar uyg'unligi maydonidir. Ikkinchidan, a'zo davlatlar o'rtasida biror-bir muammo yoki kelishmovchilik yo'qligi TDTning boshqa tashkilotlardan afzalligini ko'rsatib beradi. Uchinchidan, O'zbekiston geografik jihatdan har tomonlama yopiq va dengizga bevosita chiqa olmaydigan davlat ekanligi barchaga ma'lum. Turkiy dunyo orqali O'zbekistonning jahon dengiz bandargohlari va bozorlariga chiqish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Qiyoslaydigan bo'lsak, eng yaqin dengiz yo'liga olib chiqadigan janub tomon yo'lida Afg'onistondagi nomavhum vaziyat yoki strategik beqarorlikning davom etishi, shimol tomondan turli shartlar qo'yilishi, qolgan boshqa tomonlardagi masofaviy va ayrim geosiyosiy to'siqlarning mavjud ekanligi O'zbekistonni turkiy dunyo sari yanada yaqinlashtiradi. Binobarin, tashkilot a'zolari bilan hamkorlikda "Boku-Tbilisi-Kars" ("BTK") temir yo'li bilan bog'liq Transkaspiy transport yo'lagini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizning mazkur loyihaga qo'shilishi Yevropa davlatlariga yuk tranzitini tashkil etish bo'yicha ishlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu "Toshkent-Turkmanboshi porti-Axalkalaki-Kars" yo'nalishida Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi "Marmaray" tunneliga chiqishi demakdir [9:3]. Ekspertlar bergan fikrlar tahlili o'laroq aytish mumkinki, Tashkilotning ijobiy istiqbollari mavjud va rivojlanish strategiyasiga ega.

TDT ning 2023-yilgi Ostona sammitida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida yangi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish, Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish, afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik, Tashkilotning Temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etish, O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish kabi tashabbuslar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilgari surilgan tashabbuslar, xususan Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish va mazkur

tashabbusning amalga oshirilishi, “Naxchivan shartnomasi”da belgilanganidek, a’zo davlatlar o’rtasida savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi [3: 7].

XULOSA (CONCLUSION)

Tashkilotning asosiy maqsadi turkiy mamlakatlar o’rtasida do’stlik, yaxshi qo’shniçilikni mustahkamlash, barcha sohalarda hamkorlik, o’zaro muloqot maydonini yaratish, Yevroosiyo hududida va global darajada xavfsizlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish, o’zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

Birinchidan, TDT mintaqa rivojga katta ta’sir o’tkaza olishi mumkin, tashkilot orqali O’rta Osiyo davlatlari YI doirasidagi bir qancha kelishuvlarga erishishi va bu orqali Yevropa bozorlariga chiqishlari va integratsiyalashuv jarayonlarini kengaytirishlari mumkin.

Ikkinchidan, O’zbekiston o’zining qulay geografik joylashuvidan foydalangan holda a’zo davlatlar o’rtasida transport koridorini yaratishi kerak. Chunki O’zbekiston O’rta Osiyodagi a’zo davlatlarning barchasi bilan chegaradoshdir, buning ustiga janub Afg’oniston bilan chegaradosh bo’lgan yagona davlatligini hisobga oladigan bo’lsak, bunday imtiyozning yaratilishi uning o’zi uchun ham foydali bo’lishi mumkin.

Uchinchidan, O’zbekiston kengash a’zolari orasida aholi soni jihatidan qaraladigan bo’lsa, O’rta Osiyoda yetakchi o’rinni egallaydi. Bu kengash uchun yaxshigina iste’mol bozorini anglatadi. Savdo-iqtisodiy jihatdan mintaqada yetakchilikni o’z qo’liga olishi va asosiy savdo aylanmasini o’z bozorlariga jalb qilishi lozim va bu borada yirik investorlar va tadbirkorlarga imtiyoz va yengilliklar yaratilishi kerak.

Bundan tashqari tashkilot doirasida transport qatnovlari kengaymoqda, vizasiz tartib asosida turistlar oqimi tobora ko’paymoqda, xalqlarning qardoshlik rishtalari mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda yirik davlatlar o’rtasida yangi dunyo tartiboti uchun jiddiy kurash va siyosiy o’yinlar tobora avj olmoqda. Bunday sharoit o’z-o’zidan jahon savdo bozoridagi moliyaviy-iqtisodiy beqarorlikni yuzaga kelishiga sabab bo’lishi mumkin. Shu sababdan jahon siyosatida siyosiy vazniga ega bo’layotgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o’zaro hamjihatlik aloqalarini yuksaltirish hayotiy zaruratdir.

Yuqoridagi fikrlarni tahlili asosida, Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati doirasidagi davlatlar manfaatdorlik samarasini oshirish uchun o’zaro hamkorlikni chuqur tahlil qilish. Ishlab chiqarish, savdo-sotiq, transport logistika va eksport sohasida konkret talab va me’yorlarni belgilab olish lozim bo’ladi. Misol uchun, transport logistikasi sohasida, bunda a’zolar o’z hududidan o’tadigan savdo tranzitiga bojni kamaytirishi yoki standart miqdorga asosan olib o’tishni ta’minlashi kerak. Misol uchun YI yoki BeNiLyuks ittifoqi kabi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ELEKTRON SAYTLAR

1. “Ўзбекистон-2030” Тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Сайбназаров А. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши – ўзаро ишончга яна бир қадам. УзА. <http://uza.uz/uz/society/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana-17-09-2019>
3. Азимов Х. Туркий давлатлар ташкилоти қандай ташкилот ва у нима учун керак?. <https://daryo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak> 08.11.2022
4. Мадаминаова Д. Ўзбекистоннинг ТДТдаги иштироки: тарихий зарурат ва манфаатлар уйғунлиги // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonning-tddagi-ishtiroki-tarixiy-zarurat-va-manfaatlar-uygunligi> 424274
5. Ўзбекистон Республикасининг 14.09.2019 й. ЎРҚ-568-сон «Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик Кенгашини тузиш тўғрисидаги Нахичеван Битимини (Нахичеван, 2009 йил 3 октябрь) ратификация қилиш ҳақида» «Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2019 йил 23 сентябрь, 38-сон, 693-модда. <http://www.lex.uz>
6. Международные эксперты обсуждают вступление Узбекистана в Совет сотрудничества тюркоязычных государств. <https://nuz.uz/politika/44217-mezhdunarodnye-eksperty-obsuzhdayut-vstuplenie-uzbekistana-v-sovet-sotrudnichestva-tyurkoyazychnyh-gosudarstv.html>
7. Бердаков Д. “Евроазия – новая волна” жамғармасы директори ўринбосари. Кавказский вестник. 2019. – С. 13.
8. Жўраев С. Тараққиёт дунёсининг янги макони // Янги Ўзбекистон. № 231 (1020), 2023 йил 7 ноябрь, – Б. 1-3.
9. Бо’ronov S. Turkiy dunyo hazinasi. O’zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi o’rni // O’zbekiston ovozi gazetasining 49-soni, 2022-yil 8-dekabr, (32.743). – B-4.